

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MAQSADIDA INVESTITSIYA MUHITI YAXSHILASH BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi bo'limi boshlig'i, PhD

Iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uchun tabiiyki moliyaviy resurslar oqimining faollashuvi, ularni jalb qilishdagi uzluksizlik talab etiladi. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida tuziladigan maxsus iqtisodiy zonlardagi investitsion faollikni oshirish, bu borada ularning investitsion faoliyatini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, ularga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi ilg'or tajribalar asosida erkin iqtisodiy hududlardagi iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiyalash – bugungi kun iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarini jalb etish uchun qulay zamin yaratish va investitsiya muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmini yaratish negizida mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilashda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim”, deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini va uni jalb qilish ustuvor vazifa ekanligini e'tirof etdi.

So'nggi besh yilda milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'rildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga qabul qilinib, ushbu farmonning 49-maqsadida mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish, bunda:

- strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
- sanoat zonalarini infratuzilma bilan ta‘minlash va ishlab chiqarish loyihalarini ustuvor ravishda ushbu zonalarda joylashtirish;
- hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalar ijrosi doirasida 2023-2024 yillar davomida 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ko‘zlangan.

Shuningdek, mahalliy va xorijiy investorlarga beriladigan preferensiya va imtiyozlarning yagona reyestrini shakllantirish hamda mahalliy va xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilishi belgilangan.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o‘shish sur‘atlari investitsiya muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhimdir, u, qachonki, qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud (ijobiy) bo‘lsagina o‘sha davlat iqtisodiyotiga qo‘yilishi mumkin.

Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli qarorlari mamlakatimizda investitsion jozibadorlikni oshirishda huquqiy asos bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda, mamlakatimizning qiyosiy ustunliklaridagi muhim jihat hali ham boy xom-ashyo resurslari, arzon ishchi kuchi va arzon energiya manbalari bo‘lib qolmoqda, biroq hozirgi davrda ishlab chiqarish omillari jahon iqtisodiyoti

muhitida erkin harakatlanayotganligi sababli ushbu ustunliklar uncha muhim deb qaralmaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko‘rish mumkinki, investitsiya kapitalini shakllantirish jarayoni mulkchilik shakli va moliyalashtirish manbalariga mos ravishda takomillashtirib borilishi kerak.

Shu bilan birga, investitsiyalash subyektlari tashkiliy tuzilmalarining bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda o‘zgarishi investitsiyaviy faoliyatni rivojlantirishga asos bo‘ladi. O‘z o‘rnida, O‘zbekiston iqtisodiyotida quyidagi omillar ta‘sirida jadallashmoqda:

– iqtisodiyotning real tarmoqlarini investitsiyalashda xususiy sektorning ishtiroki oshib bormoqda;

– davlat-xususiy hamkorlik loyihalarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda;

– moliyaviy sektorning investitsiyaviy manbalarni jalb etishning bozor mexanizmlari bosqichma-bosqich bilan ishga solinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishni ta‘minlash iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, hozirgi davr talablariga javob beradigan investitsiya dasturini ishlab chiqishni hamda hukumat tomonidan investitsiya jarayonlarini takomillashtirish maqsadida siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga katta e‘tibor berishlari kerakligini taqozo etadi.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA IQTISODIY JARAYONLAR VA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI

O‘ktamov Madadjon

*SHDPI “Informatika va uni o‘qitish
metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Musurmanova Yayra

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Toshpo‘lotova Jasmina

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga chiqardi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning bir necha usullari mavjud. Bu usullar bir biridan farq qiladi, lekin umumiy maqsad iqtisodiyot sohasidagi o‘zgarishlarni belgilash, boshqarish va ta‘lim berishga imkon yaratdi. Quyidagi usullar iqtisodiyotni raqamlashtirishga yordam beradi.

Davlatlar o‘zlarining iqtisodiyot sohasidagi statistik ma‘lumotlarni davlat statistika qo‘mitasida yig‘ishadi. Bu ma‘lumotlar iqtisodiyotning har xil sohaslariga